



ORGANIZATION OF CLASSES BASED ON THE STEAM APPROACH IN ASTRONOMY CLASSES

Dadaboeva Feruzakhon Olimzhonovna

**Associate professor of the Department of Physics and astronomy of Kokan State Pedagogical
Instituti,**

Ibragimova Ra'nokhon Khamdamovna

Senior Lecturer, Department of physics and astronomy, Kokan State Pedagogical Instituti

Annotation: this article covers the methodology for making a sky sphere model based on the STEAM approach.

Keywords: celestial sphere, North and South poles of the universe, celestial equator, mathematical horizon, daily parallels, zenith and nadir.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri talabalar faolligini ta'minlash va mustaqil faoliyatini tashkil etishdir. Pedagogik jarayonlar samaradorligini nafaqat ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, shuningdek darsdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yish jarayoniga bog'liq bo'ladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlardan o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning axloqiy va ma'rifiy tarbiya berish, hamda hayotiy faolligini shakllantirish masalasini yechishga sarf qilish uchun foydalanish davr talabidir.

Astronomik tushunchalarni shakllantirish uchun astronomiya fanidan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kuzatish va amaliy ishlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, darsdan tashqari mashg'ulotlarda modellar va sodda astronomik asboblar yasash va ular orqali kuzatishlarni amalga oshirish ijobiy samara beradi. Xususan, o'quvchilarda fan asoslariga qiziqishlari oshiradi, kuzatuvchanlik, ma'suliyatlilik, sezgirlik va tartiblilik xususiyatlari rivojlanadi.

Masalan, osmon sferasining modeli, kvadrant – balandlik o'lchagich, olam qutbini ko'rsatuvchi, oddiy passaj instrumenti kabi sodda astronomic asboblarini yasash va undan foydalanish orqali o'quvchilarda amaliy va sferik astronomiyaning asosiy tushunchalarini mukammal o'rganishlari ko'zda tutiladi.

Amaliy va sferik astronomiya bo'limida osmon yoritgichlarining vaziyatlari astronomik koordinata tizimlari yordamida aniqlanadi. Osmon sferasi va uning asosiy elementlari mazkur bo'limning fundamental asosini tashkil qiladi.


Odatda, o'quvchilar osmon sferasi va uning asosiy elementlari haqida mukammal tasavvurga ega bo'lishlari biroz qiyinroq kechadi. Ularning tasavvurlarini kengaytirish va o'zlashtirishlarini ta'minlash

maqsadida, darsdan tashqari mashg'ulotlar (mustaqil ta'lif) da o'quvchilarga osmon sferasi modelini yasash topshiriladi. Osmon sferasi haqidagi tushuncha va malakani hosil qilish uchun o'quvchilarga chizma qog'ozdan 7 ta quyidagi detalni yasashga ko'rsatma beriladi.


- 1) Diametri 10 sm li doira (1-rasm)
- 2) 2ta yarim doira (2-rasm)
- 3) 4ta chorak doira (3-rasm)

Yarim va chorak doirada bir-biriga yopishtirish uchun qo'shimcha qism qo'yilgan (rasmda shtrixlangan). Doira tayyorlangan model osmon meridianini ifodalaydi. O'quvchilar doiraga, vertikal chiziq, olam o'qi, osmon ekvator proyeksiysi, tush payti chizig'ini o'tkazadilar. Qutb balandligi haqidagi teoremaga ko'ra, tush chizig'i bilan olam o'qi orasidagi burchak geografik kenglikka teng bo'lishi kerak. Doiraga zenith, nadir, qutb nuqtalari, janub va shimol nuqtalari belgilanadi. Yarim doiralarga esa, sharq va g'arb nuqtalarini belgilab, yarim doirani ko'rsatilgan qismini buklab, doiraga yopishtiriladi. U gorizontal tekislikni hosil qiladi. Ba detalni ko'rsatilgan qismini buklab, osmon ekvator proyeksiyasiga yopishtiriladi. Natijada tayyor osmon sferasining – modeli hosil bo'ladi. (4-rasm)




Modelni yasash jarayoni o'quvchilarini qay darajada fikrlashiga qarab baholanadi. Modelni tayyorlash orqali o'quvchilar "Osmon sferasi va uning asosiy elementlari" mavzusini oson o'zlashtira oladi. Shuningdek, mustaqil fikrlash va ishslash malakasiga ega bo'ladi. Model yasash orqali o'quvchilarining fazoviy tasavvuri ortadi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, hamda estetik tarbiya beriladi.




1-rasm



2-rasm




Quyoshning tush paytidagi balandligini aniqlovchi asbobni yasash metodikasini ko‘raylik. Tush paytidagi Quyoshni balandligini o‘lchaydigan asboblarining ichida eng qulayi kvadrant –balandlik o‘lchagichdir. U ikkita o‘zaro tik joylashtirilgan taxtacha, unga mahkamlangan yoysimon metall chizg‘ich va gorozntal egrilik markaziga maxsus ustunchalarga o‘rnatilgan egrilik markaziga maxsus ustunchalarga o‘rnatilgan A sterjendan iborat. Agar metal chizg‘ich 45 sm li bo‘lsa, uni graduslarga ajratish shart emas. Bunday lineykaning har 1 sm ga 2° mos keladi. Bu vaqtda simli ustunchalarning uzunligi 28,6 sm bo‘lishi shart. Quyoshning tush paytidagi balandligini o‘lchashdan oldin shoun orqali sozlash zarur va tush payti chizig‘i bo‘ylab yo‘naltirish kerak (5-rasm).



5-rasm kvadrant–balandlik o‘lchagich


Olam o‘qini belgilash uchun litseydagи geografik maydonda Yerni kovlash orqali qiya tekislik hosil qilish mumkin. Ammo astronomiya darslari uchun bu yetarli emas. Chunki olam o‘qi bilan

matematik gorizont tekisligi orasidagi burchakni o‘lchash ham talab qilinadi. Shuning uchun olam qutbini ko‘rsatuvchi asbob uzunligi 1 metr bo‘lgan va unga yetarlicha o‘lchamga ega bo‘lgan masalan, maktab transportirini o‘rnatish talab qilinadi. Bu asbob ko‘rgazmali va yetarlicha aniqlik bilan qutb balandligini aniqlab beradi. Transportir markaziga shoun osiladi. (6- rasm). Bu asbobni “Olam qutbining balandligi va joyning geografik kengligi orasidagi bog‘lanish” mavzusini yoritishda qo‘l keladi.



6-rasm Olam qutbini ko‘rsatuvchi.

Yoritgichning osmon meridianidan o‘tishini kuzatish uchun oddiy instrumentli passaj usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun maydonchada tush chizig‘ini o‘tkazib uning ikkita chekka nuqtasiga ikkita ustuncha ko‘miladi. Janubiy ustunchaning balandligi 5 metr bo‘lib, unga shoun osiladi. Uning uzunligi yetarlicha katta bo‘lishi kerak. Osmoarning katta sohasini egallashi kerak. Shimoliy ustunning uzunligi ikki metr bo‘lib, unga ham shoun osiladi. Ustunlar orasidagi masofa 1,5 -2 metr bo‘lishi kerak. Bunday asbob bir vaqtning o‘zida bir necha o‘quvchi yoritgichning kulminatsiya vaziyatini kuzatishi



7- rasm Oddiy passaj instrumenti

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati



1.Дадабоева Ф. О., Тожиева Н. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ЯНГИЛИКЛАР БИЛАН ТАНИШТИРИШ (АСТРОНОМИЯ ФАНИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 609-612.

2.Dadaboyeva F., Ibragimova R. GUMANITAR YO'NALISHLI O'QUV MUASSASALARIDA ASTRONOMIYADAN SIFAT MASALALARINI YECHISH //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ. – Т. 301.

3.Olimjonovna D. F., Anvarovich R. K., Hamdamovna I. R. THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF HISTORICISM IN THE HUMANITARIZATION OF PHYSICS AND ASTRONOMY EDUCATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 92-95.

4.Dadaboeva F. O., Rahimberdieva M., Rakhimov K. A. The importance of time aphorisms in strengthening the educational aspects of education //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 12. – С. 21-25.